BANK SEKTORI RIVOJLANISHIDA MARKETING INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH.....	1223
<i>Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich</i>	
TURIZM BOSHQARUVIDA RAQAMLI TIZIMLARI VA ULARNING AMALIYOTDA TADBIQ ETISHDA XORIJ TAJRIBASI	1228
<i>Najmiddinov Sulton Nurali o'g'li</i>	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MILLIY VALYUTADA JALB QILINGAN DEPOZITLARNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1232
<i>Melikov Otabek Maxmadaminovich</i>	
NAVOIY VILOYATI AGRAR STRUKTURASINING IQTISODIY TAVSIFI	1237
<i>Xamrokulov Sindor Qahramonovich</i>	
FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF YOUTH ENTREPRENEURSHIP IN THE EDUCATION SECTOR.....	1241
<i>Alieva Elnara Ametovna</i>	
FANLAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA O'QITISHNING NAZARIY-MEZONLARI.....	1250
<i>Shoximardanova Niginabonu Shavkatovna</i>	
ГРАФОАНАЛИТИЧЕСКИЙ РАСЧЁТ И ГЕОМЕТРИЧЕСКИЙ СИНТЕЗ СИНХРОНИЗАТОРА В БИЦИКЛОВОМ ПЛАНЕТАРНОМ МЕХАНИЗМЕ С РЕВЕРСИРУЮЩИМИСЯ САТЕЛЛИТАМИ.....	1253
<i>Алимов Бахтияр Милибаевич, Абдукайимов Ботиржон Ниязкулович</i>	
HUDUDLARNING INVESTITSION SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI VA USTUVOR YO'NALISHLARI	1258
<i>O'razaliyev Javlonbek O'rinboevich</i>	
BANK MAHSULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI.....	1264
<i>Xujamuratov Abbos Mardonovich</i>	



ISLON BANK MAHSULOTLARINI JORIY ETISH METODOLOGIYASI: XALQARO TAJIRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1270
<i>Voxidov Oybek Roziqovich</i>	
SUG'URTA BOZORIDA INVESTITSION FAOLIYATNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	1275
<i>Fayziyev Oybek Raximovich</i>	
DETERMINANTS OF WAGES IN THE MODERN LABOUR MARKET: A LITERATURE REVIEW.....	1279
<i>Zakhidov Azizbek Rustamovich</i>	
ЦИФРОВЫЕ ПРОЕКТЫ И ИННОВАЦИОННЫЕ СИСТЕМЫ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ОТРАСЛИ.....	1288
<i>Каракулов Фарход Зайпудинович</i>	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQRISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI	1294
<i>Achilov Ilmurad Nematovich</i>	
OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING AKADEMIK XAVFLARINI BOSHQARISHDA SUG'URTA MEXANIZMLARINI JORIY ETISH.....	1299
<i>G'aniyev G'olibjon Abdiraxmanovich</i>	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA MERCHANDAYZING STANDARTLARINI QO'LLASH MEXANIZMINI ISHLAB CHIQRISH MASALALARI.....	1305
<i>Safarov Baxtiyor Djurakulovich</i>	
TO'QIMACHILIK KORXONALARI B2B BOZORIDA MARKETING STRATEGIYALARINING INNOVATSION TAHLILI	1314
<i>Sapayeva Nilufar Kadambayevna</i>	
FRANSUZ TILIDA FONO-GRAFOSTILISTIK VOSITALAR: TIPOLOGIYA VA KLASSIFIKATSIYA	1319
<i>Islomov Dilshod Shomurodovich</i>	
PRACTICAL ASPECTS OF SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT IN MAHALLAS	1324
<i>Gafurov Ubaydullo Vakhobovich</i>	
GUDVILL VA XARIDDAN KELGAN FOYDANI MHXS ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISHNING ILMIY-AMALIY MASALALARI.....	1329
<i>Abdurasulov Jamshidbek Axmad ug'li</i>	
BANKLARDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISH SAMARADORLIGI.....	1336
<i>Xabibulloxoji Muhammadsolih Alisher o'g'li</i>	
MARKETING AS A DECISIVE ELEMENT IN THE SUCCESSFUL INTRODUCTION OF INNOVATIVE PRODUCTS TO THE MARKET.....	1343
<i>Davlyatova Gulnara</i>	
KORXONALARDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	1348
<i>Akramov Toxir Abdiraxmanovich</i>	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA MARKETING VA LOGISTIKA SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY TAMOIYILLARI	1353
<i>Djurayev Bekzod Bekmatovich</i>	
"O'ZBEKNEFTGAZ" AJNING IQTISODIY BARQARORLIGI VA FAOLIYATINING RIVOJLANISHI	1359
<i>Salomova Sarvinoz Salimovna</i>	



BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA AYLANMA IQTISODIYOT TAMOYILLARI VA CHIQUINDISIZ ISHLAB CHIQUARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1364
<i>Kurbanova Dildora Abduraxmanovna</i>	
ENERGIYA TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR VA QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY VA EKOLOGIK SAMARADORLIGI.....	1370
<i>Kurbanova Dildora Abduraxmanovna</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ELEKTR VA MAISHIY TEXNIKA ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	1377
<i>Sonaev Sanjar Nurmatovich</i>	
MAJBURIYATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHDA HISOB SIYOSATINING AMALIY AHAMIYATI.....	1382
<i>Uzoqova Feruza Baraka qizi</i>	
IJTIMOY-IQTISODIY BARQARORLIK VA "OVERTURIZM" OMILLARI KONTEKSTIDA HUDUDIY TURISTIK DESTINATSIYALAR ISTIQBOLLARINI BAHOLASH.....	1387
<i>Isrofilov Firdavs Ibrohim o'g'li</i>	
RAQAMLI KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA GRAFIK DASTURLAR ROLI.....	1394
<i>Axmatova Asila Akmaljon qizi</i>	
BOSHQARUV HISOBIDA BUDJETLASHTIRISH VA UNGA OID YONDASHUVLAR.....	1397
<i>B.Yu.Maxsudov</i>	
KICHIK VA O'RTA KORXONALARNING HAYOT BOSQICHLARI TAHLILI ASOSIDA AUDIT O'TKAZISH USLUBIYOTINING USTUNLIK VA KAMCHILIKLARI.....	1402
<i>Muydinov Erkin Jamaldinovich</i>	
TURIZM SOHASINI INVESTITSIYALASHDA INNOVATSION FAOLIYATNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHNING MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1408
<i>Temurbek Olimovich Mamayunusov</i>	
ГИДРОДИНАМИЧЕСКИЕ И РЕОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДВИЖЕНИЯ ТЕКУЧИХ СРЕД С УЧЁТОМ УСКОРЕНИЯ ДЕФОРМАЦИИ.....	1415
<i>Мирзоев Акмал Ахадович, Ахмадов Илхом Актамович</i>	
O'ZBEKISTON YAIMINING UZOQ MUDDATLI RIVOJLANISHIDA INVESTITSIYALAR, AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI (AKT) VA TASHQI SAVDONING TA'SIRI: KOINTEGRATSIYA TAHLILI.....	1423
<i>Sobirov Yo'ldoshboy Ro'zimboevich</i>	
РАЗРАБОТКА КЛАССИФИКАЦИОННОЙ СХЕМЫ КОМПОНЕНТОВ КЕРАМИЧЕСКИХ ФЛЮСОВ И МАТЕМАТИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ ФОРМИРОВАНИЯ ХИМИЧЕСКОГО СОСТАВА МЕТАЛЛА ШВА ПРИ АВТОМАТИЧЕСКОЙ ДУГОВОЙ СВАРКЕ.....	1431
<i>Эрматов Зиядулла Досматович</i>	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA XALQARO BOSHQARUVNI JORIY ETISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1437
<i>Raxmatillayev Sarvarbek Botirjonovich</i>	
INTERNATIONALIZATION AS A TOOL FOR INSTITUTIONAL DEVELOPMENT IN EMERGING HIGHER EDUCATION SYSTEMS.....	1442
<i>Yunusova Shirin Adxamovna</i>	
NEFT-GAZ SANOATINING GLOBAL ENERGETIKA BOZORIDAGI STRATEGIK VA IQTISODIY ROLI.....	1448
<i>Salomova Sarvinoz Salimovna</i>	



BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI NAZORAT TIZIMINI TASHKIL QILISHNING XUSUSIYATLARI	1453
Saidakbarov Xusniddin Abdusalomovich	
INVESTITSION FAOLLIKNI TA'MINLASHDA MOLIYA-KREDIT MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1458
Madaminov In'omjon Ozodovich	
MARKETING STRATEGIYASI YORDAMIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1465
Isakova Naima Ikromjonovna	
INNOVATIVE FINANCIAL MECHANISMS FOR FINANCING RENEWABLE ENERGY AND GREEN ECONOMY PROJECTS: AN ECONOMIC PERSPECTIVE	1469
F. Nishonov	
DDOS HUJUMLARINI ANIQLASH USULLARI	1474
Mardiyev Ulugbek Rasulovich	
O'ZBEKISTONGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALAR OQIMINING STATISTIK TAHLILI	1479
Qosimjonov G'ulomjon Qosimovich	
XORIJIY MAMLAKATLARDA KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISH TAJRIBASI VA UNI BOSHQARISH SAMARADORLIGI	1483
Misirov Iskandar Abduvaliyevich	
TIJORAT BANKLARIDA STRATEGIK MENEJMENT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARI	1489
Jamolov Alovuddin Jaloliddin o'g'li	
ZAMONAVIY SHAROITDA TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY RESURSLARINI BOSHQARISH ZARURLIGI VA UNING BANK FAOLIYATIDA TUTGAN O'RNI	1494
Raxmatov Xasan Utkirovich	
EKOLOGIK MONITORING TIZIMLARINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA EVOLYUTSIYASI	1504
Homidov Hamdam Hasanovich	
MEVA-SABZAVOTNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA ICHKI AUDITNING RESURLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGIGA TA'SIRI: MEHNAT, MODDIY VA MOLIYAVIY RESURLAR KESIMIDA ICHKI AUDIT AHAMIYATI	1509
Rahmatullayev Mirjalol Xatam o'g'li	
MUJASSAMLANGAN MENEJMENT TIZIMLARIDA OPERATSION RISKLARNI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI: METODOLOGIYA VA AMALIY TAHLIL (AVTOMOBIL BUTLOVCHI QISMLARI ISHLAB CHIQRUVCHI KORXONA MISOLIDA)	1516
Xamrakulova Zarnigorxon Farxodjon qizi	
AMORTIZATSIYA QILINADIGAN AKTIVLAR BOSHLANG'ICH QIYMATINI SOLIQ SOLISH MAQSADLARIDA SHAKLLANTIRISH VA O'ZGARTIRISH MASALALARI	1522
Aminboyev Jaloliddin Otabek o'g'li	
KIBERXAVFSIZLIKKA OID XALQARO STANDARTLARGA ASOSLANGAN ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	1528
Raxmatxo'jayev Rashidxon Rixsitilla o'g'li	
KORPORATIV AXBOROT TIZIMLARINI ISHLAB CHIQISH VA AMALIYOTGA JORIY QILISHNING NAZARIY JIHATLARI	1535
Kudaybergenov Azamat Shamuratovich	
MINTAQADA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	1542
Madraximov Qaxramon Egamberganovich	



KORXONALARNING INVESTITSION VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH MASALALARI.....	1547
Gafurova Umida Fatixovna	
ПРЯМЫЕ И КОСВЕННЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ МОНЕТАРНОЙ ПОЛИТИКИ.....	1554
Шомуродов Равшан Турсункулович, Йўлдошходжаев Сарвар Бахромхожаевич	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ УВЕЛИЧЕНИЯ КАПИТАЛИЗАЦИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	1562
Шомуродов Равшан Турсункулович, Юсупова Нигора Собитжон кизи	
SANOAT RIVOJLANISHIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION MODELNING SHAKLLANISHI	1567
Umurzak Ablakulovich Radjabov	
ФАКТОРНАЯ МОДЕЛЬ УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИЯМИ В ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН В ПРОЦЕССЕ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ	1573
Бекбосынов Айдос Куралбаевич	
CHUQUR REAKTIV QUUVAT REJIMINI TAHLIL QILISH USULLARI.....	1579
Pirmatov Nurali Berdiyrovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Kurbonov Najmiddin Abduxamidovich, Zayniyeva Oliyaxon Egamberdiyevna, Yo'ldosheva Nozima Zohid qizi	



CHUQUR REAKTIV QUVVAT REJIMINI TAHLIL QILISH USULLARI

Pirmatov Nurali Berdiyrovich

Toshkent davlat texnika universiteti
“Elektr mashinalari va yuritmalari muhandisligi” kafedrası professori
Email: npirmatov@mail.ru
ORCID: [0000-0001-5212-2593](https://orcid.org/0000-0001-5212-2593)

Bekishev Allabergen Yergashevich

Toshkent davlat texnika universiteti
“Elektr mashinalari va yuritmalari muhandisligi” kafedrası dotsenti, PhD.
Email: allabergenbekisev@gmail.com
ORCID: [0000-0003-3019-2050](https://orcid.org/0000-0003-3019-2050)

Kurbonov Najmiddin Abduxamidovich

Qarshi davlat texnika universiteti
“Elektr ta’minoti va intellektual energetik tizimlari” kafedrası dotsenti, PhD.
Email: Elmeh1212@mail.ru
ORCID: [0000-0003-4152-4006](https://orcid.org/0000-0003-4152-4006)

Zayniyeva Oliyaxon Egamberdiyevna

Qarshi davlat texnika universiteti
“Elektr ta’minoti va intellektual energetik tizimlari” kafedrası dotsenti
Email: o.e.zayniyeva@gmail.com
ORCID: [0000-0002-6631-506X](https://orcid.org/0000-0002-6631-506X)

Yo’ldosheva Nozima Zohid qizi

Qarshi davlat texnika universiteti magistranti
Email: yuldoshevanozima5@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada sinxron kompensatorlarning chuqur reaktiv quvvat rejimida ishlashini tahlil qilish usullari tadqiq etilgan. Elektr energetika tizimlarida reaktiv quvvatni samarali boshqarish va kuchlanish barqarorligini ta’minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Sinxron kompensatorlar reaktiv quvvatni generatsiya qilish yoki iste’mol qilish orqali elektr tarmoqlarida kuchlanishni tartibga solish imkonini beradi. Maqolada chuqur reaktiv quvvat rejimi tushunchasi, uning elektr tarmoqlariga ta’siri va sinxron mashinalarda yuzaga keladigan fizik jarayonlar tahlil qilingan. Shuningdek, sinxron kompensatorning ish rejimlarini o’rganishda qo’llaniladigan matematik modellashtirish, grafik tahlil va kompyuter simulyatsiyasi usullari ko’rib chiqilgan. MATLAB/Simulink muhitida modellashtirish orqali reaktiv quvvatning o’zgarish xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari sinxron kompensatorlarning chuqur reaktiv quvvat rejimida ishlashini optimal boshqarish va elektr energetika tizimlarining barqarorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko’rsatadi.

Kalit so’zlar: sinxron kompensator, reaktiv quvvat, elektr tarmog’i, modellashtirish, MATLAB, kuchlanish barqarorligi, energetika tizimi.

Abstract. This scientific article examines methods for analyzing the operation of synchronous compensators in deep reactive power mode. Effectively managing reactive power and ensuring voltage stability in electric power systems is one of the important tasks. Synchronous compensators allow for the regulation of voltage in electrical networks by generating or consuming reactive power. The article analyzes the concept of deep reactive power regime, its impact on electrical networks, and the physical processes occurring in synchronous machines. Methods of mathematical modeling, graphical analysis, and computer modeling used in studying the operating modes of a synchronous compensator are also considered. The features of changing the reactive power through modeling in the MATLAB/Simulink environment were analyzed. The research results show that synchronous compensators are important for optimal operation management in deep reactive power mode and increasing the stability of power systems.

Keywords: Synchronous compensator, reactive power, electrical network, modeling, MATLAB, voltage stability, power system.

Аннотация. В данной научной статье исследованы методы анализа работы синхронных компенсаторов в режиме глубокой реактивной мощности. Эффективное управление реактивной мощностью и обеспечение стабильности напряжения в электроэнергетических системах является одной из важных задач. Синхронные компенсаторы позволяют регулировать напряжение в электрических сетях генерации или потребления реактивной мощности. В статье анализируется понятие режима глубокой реактивной мощности, его влияние на электрические сети и физические процессы, происходящие в синхронных машинах. Также рассмотрены методы математического моделирования, графического анализа и компьютерного моделирования, применяемые при изучении режимов работы синхронного компенсатора. Проанализированы особенности изменения реактивной мощности путем моделирования в среде MATLAB/Simulink. Результаты исследования показывают, что синхронные компенсаторы имеют важное значение для оптимального управления работой в режиме глубокой реактивной мощности и повышения устойчивости электроэнергетических систем.

Ключевые слова: Синхронный компенсатор, реактивная мощность, электрическая сеть, моделирование, MATLAB, стабильность напряжения, энергетическая система.

KIRISH

Zamonaviy elektr energetika tizimlarida reaktiv quvvatni boshqarish va kuchlanish barqarorligini ta'minlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Elektr tarmoqlarida yuklamalarning ortishi, uzoq elektr uzatish liniyalarining ko'payishi va sanoat korxonalarida induktiv yuklamalarning yuqori ulushi reaktiv quvvat balansini ta'minlashni yanada dolzarb qiladi. Shu sababli reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish uchun turli texnik vositalar, jumladan, sinxron kompensatorlar keng qo'llaniladi [1].

Sinxron kompensator — bu sinxron mashinaning maxsus ish rejimi bo'lib, u mexanik yuklamasiz ishlaydi va elektr tarmog'iga reaktiv quvvatni generatsiya qilish yoki iste'mol qilish orqali kuchlanishni tartibga solish vazifasini bajaradi. Qo'zg'atish tokining o'zgarishi orqali sinxron kompensator elektr tarmog'ida reaktiv quvvat manbai yoki iste'molchisi sifatida ishlashi mumkin [2].

Chuqur reaktiv quvvat rejimi sinxron kompensatorning qo'zg'atish toki kamaytirilgan holatda ishlashi bilan xarakterlanadi. Bunday rejimda mashina elektr tarmog'idan katta miqdorda reaktiv quvvat iste'mol qiladi. Bu jarayon elektr tarmog'idagi kuchlanishni pasaytirish yoki reaktiv quvvat ortiqchaligini bartaraf etish uchun qo'llaniladi [3].

Mazkur tadqiqotda sinxron kompensatorning chuqur reaktiv quvvat rejimida ishlashini tahlil qilish usullari, matematik modellashtirish va grafik tahlil usullari ko'rib chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Elektr energetika tizimlarida reaktiv quvvatni boshqarish va kuchlanish barqarorligini ta'minlash masalalari ko'plab ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Sinxron kompensatorlar bu sohada reaktiv quvvatni tartibga soluvchi asosiy texnik vositalardan biri hisoblanadi.

P. Kundurning energetika tizimlari barqarorligiga bag'ishlangan tadqiqotlarida sinxron mashinalarning dinamik xususiyatlari va elektr tarmoqlarida reaktiv quvvatni boshqarish usullari keng tahlil qilingan [1]. Muallif sinxron kompensatorlarning kuchlanish barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi.

P. M. Anderson va A. A. Fuad tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda elektr energetika tizimlarida nazorat va boshqaruv masalalari, jumladan, reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish usullari ilmiy asosda ko'rib chiqilgan [2]. Ushbu ishlarda sinxron kompensatorlarning turli ish rejimlari va ularning tarmoq barqarorligiga ta'siri tahlil qilingan.

P. Zauer va M. Pay tomonidan energetika tizimlarining dinamik barqarorligiga bag'ishlangan tadqiqotlarda sinxron mashinalarning matematik modellari va ularni tahlil qilish usullari bayon etilgan [3]. Mualliflar sinxron kompensatorlarni modellashtirishda differensial tenglamalardan foydalanishning samaradorligini ko'rsatgan.

Stiven Chepmenning elektr mashinalari nazariyasiga oid ishlarida sinxron mashinalarning ish prinsipi, reaktiv quvvat hosil bo'lish jarayonlari va turli ish rejimlari nazariy jihatdan asoslab berilgan [4]. Ushbu tadqiqotlar sinxron kompensatorlarning fizik asoslarini tushunishda muhim manba hisoblanadi.

P. Krauze va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sinxron mashinalarning dq koordinatalar tizimidagi matematik modellari va ularni kompyuter modellashtirish usullari keng yoritilgan [5]. Bu usullar sinxron kompensatorlarning turli rejimlardagi ishlashini aniq tahlil qilish imkonini beradi.

F. Milano tomonidan taklif etilgan energetika tizimlarini modellashtirish usullari sinxron kompensatorlarni kompyuter muhitida tahlil qilish imkoniyatini yanada kengaytirdi [6]. Muallif MATLAB va boshqa dasturiy muhitlarda elektr tarmoqlarini modellashtirish usullarini bayon qilgan.

K. R. Padiyarning ishlarida energetika tizimlarining dinamik jarayonlari va reaktiv quvvatni boshqarish usullari tadqiq qilingan [7]. Muallif sinxron kompensatorlarning kuchlanish barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyatini alohida ta'kidlaydi.



J. Greyndjer va V. Stivenson tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda elektr energetika tizimlarida reaktiv quvvat taqsimoti va uni tahlil qilish usullari bayon etilgan [8]. Ushbu tadqiqotlar elektr tarmoqlarida reaktiv quvvat balansini ta'minlash masalalarini chuqur o'rganish imkonini beradi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy ishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sinxron kompensatorlar elektr energetika tizimlarida reaktiv quvvatni boshqarish va kuchlanish barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Biroq chuqur reaktiv quvvat rejimida sinxron kompensatorlarning ishlash xususiyatlarini kompleks tahlil qilish va ularni optimal boshqarish masalalari hali ham dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Shu sababli mazkur tadqiqotda sinxron kompensatorlarning chuqur reaktiv quvvat rejimida ishlashini matematik modellashtirish va simulyatsiya usullari asosida tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Sinxron kompensatorning chuqur reaktiv quvvat rejimida ishlashini tahlil qilishda bir nechta ilmiy usullar qo'llaniladi. Ular asosan quyidagilardan iborat:

- Matematik tahlil usuli;
- Grafik tahlil usuli;
- Kompyuter modellashtirish usuli;
- Eksperimental tahlil usuli.

Matematik tahlil usuli sinxron mashinaning elektr va mexanik tenglamalari asosida amalga oshiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Reaktiv quvvat elektr energiyasining almashinuv jarayonida yuzaga keladi va u elektr tarmog'ida magnit va elektr maydonlarini hosil qilish uchun zarur hisoblanadi. Reaktiv quvvat quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$Q = UI \cdot \sin\varphi$$

bu yerda: Q – reaktiv quvvat, U – kuchlanish, I – tok, φ – fazalar orasidagi burchak.

Sinxron kompensatorning reaktiv quvvati uning qo'zg'atish tokiga bog'liq. Agar qo'zg'atish toki nominal qiymatdan kamaytirilsa, mashina elektr tarmog'idan reaktiv quvvat iste'mol qila boshlaydi. Bu holat chuqur reaktiv quvvat rejimi deb ataladi [4].

Bu rejim elektr tarmog'ida quyidagi vazifalarni bajarishda muhim:

- kuchlanishni tartibga solish;
- reaktiv quvvat balansini ta'minlash;
- elektr tarmog'ining barqarorligini oshirish.

Sinxron kompensatorlarning chuqur reaktiv quvvat iste'moli rejimida ishlashini tahlil qilish energetika tizimida kuchlanish barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bunday rejimlarda sinxron mashinaning qo'zg'atish toki kamaytiriladi va natijada u tarmoqdan reaktiv quvvat iste'mol qila boshlaydi. Bu jarayon elektr tarmog'ida kuchlanishni tartibga solish va reaktiv quvvat balansini optimallashtirish uchun qo'llaniladi [1].

Sinxron kompensatorning reaktiv quvvatini hisoblash uchun quyidagi asosiy tenglama qo'llaniladi:

$$Q = \frac{U \cdot (E \cdot \cos\delta - U)}{X_s}$$

bu yerda: Q – reaktiv quvvat, U – tarmoq kuchlanishi, E – ichki EYUK, X_s – sinxron reaktiv qarshilik, δ – yuk burchagi.

Mazkur tenglama sinxron mashinaning reaktiv quvvat generatsiyasi yoki iste'molini aniqlash imkonini beradi. Chuqur reaktiv quvvat rejimida $E < U$ bo'ladi va natijada mashina reaktiv quvvat iste'mol qiladi [2].

Hisoblash algoritmlari odatda quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- Elektr tarmog'ining parametrlarini aniqlash;
- Sinxron mashinaning ekvivalent sxemasini tuzish;
- dq koordinatalar tizimida tenglamalarni yozish;
- Reaktiv quvvat o'zgarishini hisoblash;
- Barqarorlikni baholash.

Zamonaviy tadqiqotlarda mazkur algoritmlar iteratsion hisoblash usullari va kompyuter modellashtirish asosida amalga oshiriladi [3].

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda sinxron kompensatorlarni tahlil qilishda kompyuter modellashtirish keng qo'llaniladi. Bunday modellashtirish uchun quyidagi dasturlardan foydalaniladi:

- MATLAB / Simulink;
- PSCAD;
- DIgSILENT PowerFactory.

Modellashtirish jarayonida sinxron kompensatorning dq koordinatalar tizimidagi matematik modeli tuziladi. Bu model stator va rotor toklari, magnit maydoni va elektr tarmog'i parametrlarini hisobga oladi [6].

Modellashtirish jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- elektr tarmog'ining modelini tuzish;
- sinxron kompensator modelini kiritish;
- qo'zg'atish tokini o'zgartirish;
- reaktiv quvvat o'zgarishini tahlil qilish.

Simulyatsiya natijalari sinxron kompensatorning turli rejimlardagi ishlash xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Sinxron kompensatorning ish rejimlarini tahlil qilishda MATLAB/Simulink, PSCAD, DIgSILENT PowerFactory kabi dasturiy muhitlar keng qo'llaniladi [4].

Simulyatsiya jarayonida quyidagi asosiy parametrlar hisobga olinadi:

- nominal kuchlanish U_n ;
- nominal quvvat S_n ;
- sinxron reaktiv qarshilik X_d ;
- qo'zg'atish toki I_f ;
- stator toki I_s .


Modellashtirish jarayonida sinxron kompensator elektr tarmog'iga ulanadi va qo'zg'atish tokining turli qiymatlarida reaktiv quvvatning o'zgarishi tahlil qilinadi. Simulyatsiya natijalari sinxron mashinaning turli rejimlardagi barqarorligini baholash imkonini beradi [5].

Simulyatsiya jarayoni odatda quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- Elektr tarmog'ining modelini yaratish;
- Sinxron kompensator modelini qo'shish;
- Boshlang'ich parametrlarni kiritish;
- Reaktiv quvvat rejimida ishlashni modellashtirish;
- Natijalarni tahlil qilish.

Bunday modellashtirish elektr energetika tizimlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan avariya holatlarini oldindan baholash imkonini ham beradi [6].


Quyidagi 1-rasmda keltirilgan ikki o'qi bo'yicha qo'zg'atiladigan sinxron kompensatorning o'ta qo'zg'atish rejimidan chala qo'zg'atish rejimiga o'tgandagi stator va qo'zg'atish chulg'amidagi toklarning o'zgarishi grafiklari keltirilgan bo'lib, o'ta qo'zg'atish rejimida qo'zg'atish chulg'amiga 1,7 n.b. da qo'zg'atish toki berilganda, stator chulg'amidan 0,48 n.b. da tok oqib o'tadi. Ikki o'qi bo'yicha qo'zg'atiladigan sinxron kompensatorning chala qo'zg'atish rejimida qo'zg'atish chulg'amiga 0 n.b. da qo'zg'atish toki berilganda esa, stator chulg'amidan 0,68 n.b. tok oqib o'tganligini ko'rish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Ikki o'qi bo'yicha qo'zg'atiladigan sinxron kompensatorning o'ta qo'zg'atish rejimidan chala qo'zg'atish rejimiga o'tgandagi stator va qo'zg'atish chulg'amidagi toklarning o'zgarishi grafiklari¹

Ikki o'qi bo'yicha qo'zg'atiladigan sinxron kompensatorning chala qo'zg'atish rejimidagi (qo'zg'atish tokining manfiy qiymatida) stator va qo'zg'atish toklari o'zgarishi grafiklari 2-rasmda keltirilgan (2-rasm).

1 Manba: muallif ishlanmasi



2-rasm. Ikki o'qi bo'yicha qo'zg'atiladigan sinxron kompensatorning o'ta qo'zg'atish rejimidan chala qo'zg'atish rejimiga o'tgandagi (qo'zg'atish tokining manfiy qiymatida) stator va qo'zg'atish toklari o'zgarishi grafiklari²

Yuqoridagi 2-rasmga ko'ra ikki o'qi bo'yicha qo'zg'atiladigan sinxron kompensator o'ta qo'zg'atish rejimidan chuqur chala qo'zg'atish rejimiga o'tganda (qo'zg'atish tokining manfiy qiymatida) an'anaviy sinxron kompensatorga nisbatan stator va qo'zg'atish toki chayqalmaydi. Bunday rejimda ikki o'qi bo'yicha qo'zg'atiladigan sinxron kompensator an'anaviy sinxron kompensatorga nisbatan turg'un ishlay oladi, ya'ni ikki o'qi bo'yicha qo'zg'atiladigan sinxron kompensator sinxronizmdan chiqib ketmasdan ishlay oladi.

sinxron kompensatorning ish rejimlarini tahlil qilishda V-obrazli xarakteristikalar muhim ahamiyatga ega. Bu xarakteristikalarda stator tokining qo'zg'atish tokiga bog'liqligi tasvirlanadi [7].

Grafik tahlil quyidagi holatlarni ko'rsatadi:

- kam qo'zg'atish rejimi — reaktiv quvvat iste'moli;
- nominal qo'zg'atish rejimi — reaktiv quvvat nolga yaqin;
- ortiqcha qo'zg'atish rejimi — reaktiv quvvat generatsiyasi.

Bu grafiklar sinxron kompensatorning optimal ish rejimini tanlashda muhim ahamiyatga ega.

Matematik tahlil esa differensial tenglamalar tizimi asosida amalga oshiriladi:

$$\left. \begin{aligned} \frac{d\delta}{dt} &= \omega - \omega_s \\ \frac{d\omega}{dt} &= \frac{P_m - P_e}{2H} \end{aligned} \right\}$$

Bu tenglamalar sinxron mashinaning dinamik holatini tahlil qilish imkonini beradi va elektr tarmog'idagi kuchlanish barqarorligini baholashda muhim ahamiyatga ega [8].

Chuqur reaktiv quvvat rejimida sinxron kompensatorlarni ishlatishda bir qator texnik muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ulardan asosiylari:

- kuchlanish tebranishlari;
- dinamik barqarorlikning pasayishi;
- elektr tarmog'ida reaktiv quvvat taqsimotining o'zgarishi;
- generatorlarning ish rejimiga ta'sir.

Ayniqsa uzoq elektr uzatish liniyalarida reaktiv quvvatning noto'g'ri taqsimlanishi kuchlanish pasayishiga olib kelishi mumkin [8].

Bu muammolarni bartaraf etish uchun zamonaviy elektr tarmoqlarida avtomatik boshqarish tizimlari qo'llaniladi. Masalan, avtomatik qo'zg'atish regulyatorlari sinxron kompensatorning ish rejimini avtomatik tarzda tartibga soladi [9].

Bundan tashqari, elektr tarmoqlarida yuklamalarning tez o'zgarishi sinxron kompensatorning ish rejimlariga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli zamonaviy energetika tizimlarida avtomatik qo'zg'atish regulyatorlari va reaktiv quvvatni avtomatik boshqarish tizimlari qo'llaniladi [10].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sinxron kompensatorlarni optimal boshqarish orqali elektr tarmoqlarida kuchlanish barqarorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

2 Manba: muallif ishlanmasi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, sinxron kompensatorlar elektr energetika tizimlarida reaktiv quvvatni boshqarish va kuchlanish barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Chuqur reaktiv quvvat rejimida ular elektr tarmog'idan reaktiv quvvat iste'mol qilib, reaktiv quvvat balansini tartibga solish imkonini beradi.

Sinxron kompensatorlarni tahlil qilishda matematik modellashtirish, grafik tahlil va kompyuter simulyatsiyasi usullari samarali hisoblanadi. MATLAB va boshqa modellashtirish muhitlaridan foydalanish sinxron mashinaning turli ish rejimlarini chuqur o'rganish imkonini beradi.

Kelgusida sinxron kompensatorlarni optimal boshqarish algoritmlarini ishlab chiqish va intellektual nazorat tizimlarini qo'llash elektr energetika tizimlarining samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Olib borilgan tadqiqotlar va adabiyotlar tahlili natijasida quyidagi ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Sinxron kompensatorlarni optimal boshqarish algoritmlarini ishlab chiqish. Elektr energetika tizimlarida reaktiv quvvatni samarali boshqarish maqsadida sinxron kompensatorlarning qo'zg'atish tokini avtomatik tartibga soluvchi intellektual algoritmlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Kompyuter modellashtirish usullarini keng joriy etish. Sinxron kompensatorlarning turli ish rejimlarini tahlil qilishda MATLAB/Simulink, PSCAD va DIgSILENT kabi dasturiy muhitlardan foydalanish tadqiqotlarning aniqligi va samaradorligini oshiradi.

Reaktiv quvvatni avtomatik nazorat qilish tizimlarini joriy qilish. Elektr tarmoqlarida reaktiv quvvat balansini ta'minlash uchun sinxron kompensatorlar bilan birgalikda avtomatik reaktiv quvvat nazorati tizimlarini qo'llash tavsiya etiladi.

Kuchlanish barqarorligini oshirish choralari ishlab chiqish. Chuqur reaktiv quvvat rejimida elektr tarmoqlarida kuchlanish pasayishining oldini olish uchun sinxron kompensatorlarning ish rejimlarini optimal tanlash zarur.

Elektr tarmoqlarida reaktiv quvvat taqsimotini tahlil qilish. Elektr uzatish liniyalarida reaktiv quvvatning noto'g'ri taqsimlanishi kuchlanish barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun reaktiv quvvat oqimlarini doimiy monitoring qilish tizimlarini joriy etish muhim hisoblanadi.

Energetika tizimlarida raqamli nazorat texnologiyalarini qo'llash. Zamonaviy energetika tizimlarida raqamli monitoring va intellektual boshqaruv texnologiyalarini qo'llash sinxron kompensatorlarning samarali ishlashini ta'minlaydi.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun yo'nalishlar. Kelgusida sinxron kompensatorlarning chuqur reaktiv quvvat rejimida ishlashini sun'iy intellekt va mashinali o'rganish usullari asosida optimal boshqarish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kundur P. Power System Stability and Control. McGraw-Hill, 1994.
2. Anderson P.M., Fouad A.A. Power System Control and Stability. IEEE Press, 2003.
3. Sauer P., Pai M. Power System Dynamics and Stability. Prentice Hall, 1998.
4. Chapman S. Electric Machinery Fundamentals. McGraw-Hill, 2012.
5. Krause P., Wasynczuk O., Sudhoff S. Analysis of Electric Machinery and Drive Systems. IEEE Press, 2013.
6. Milano F. Power System Modelling and Scripting. Springer, 2010.
7. Padiyar K.R. Power System Dynamics. B.S. Publications, 2002.
8. Grainger J., Stevenson W. Power System Analysis. McGraw-Hill, 1994.
9. IEEE Power Engineering Society. Reactive Power Control in Electric Systems, 2005.
10. Pirmatov N.B., Zayniyeva O.E., Kurbonov N.A. Ikki o'qi bo'yicha qo'zg'atiladigan sinxron kompensatorni qo'zg'atishni rostlovchi qurilma. "Innovatsion texnologiyalar jurnali". 2013 yil 1-son, 24-27 bet.
11. Pirmatov N.B., Bekishev A.E., Kurbonov N.A. Ikki o'q bo'yicha qo'zg'atiladigan sinxron kompensator yordamida tarmoq kuchlanishi va reaktiv quvvatni rostlash // "Innovatsion texnologiyalar". - Qarshi, 2021. - №2 (44). 33-36 b.
12. Pirmatov N.B., Bekişev A.E., Taniyev M.X., Kurbonov N.A. Rasçet U-obraznykh kharakteristik sinxronnogo kompensatora s dvuxosnym vozbuždeniya // Ÿzbekgidroenergetika "Ÿzbekgidroenergo" akçiyadorlik jamiyati ilmiy-texnik jurnali, 36-39 bet. №1/2022. (30.09.2020 dađi № 286/8 OAK raçsati qarori).
13. Sulliyev A.X., Zayniyeva O.Ÿ., Kurbanov N.A., Zubaydullaeva Ÿ.A. Turbogeneratorv rejime sinxronnogo kompensatora // "Fizika vozobnovlyemykh istoçnikov energii i ustoichivoy okružayemykh sredy" respublika ilmiy-texnikaviy anjumanı materiallar tŸplami, 185-186 s. 24-25 aprel 2019
14. Pirmatov N.B., Kurbonov N.A. Ikki o'qi bo'yicha qo'zg'atiladigan sinxron kompensatorning havo oralig'idagi magnit maydonı // "Metallorganik yuqori molekullı birikmalar sohasidagi dolzarb muammolarning innovatsion yechimlari" Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn-konferensiya 314-316 bet. Toshkent sh. 28 may 2021 yil.
15. Pirmatov N.B., Bekişev A.E., Kurbanov N.A. Rasçet U-obraznykh kharakteristik sinxronnogo kompensatora s dvuxosnym vozbuždeniya // «Tendentsii i perspektivy razvitiya nauki i obrazovaniya v usloviyakh globalizatsii» Sb.nauch.trudov. Pereyaslav, 157-162 s. 2022. Vyp.80.



16. Kurbonov N.A., Pirmatov N.B., Bekishev A.E. Ikki o'q bo'yicha qo'zg'atiladigan sinxron kompensatorning U-simon xarakteristikasini hisoblashning dasturiy ta'minoti EHM uchun dastur // Агентство по интеллектуальной собственности РУз. Свидетельство DGU №40878 28.06.2024.
17. Pirmatov N.B., Bekishev A.E., Shernazarov S.E., Kurbanov N.A., Norkulov U.E. Regulation of mains voltage and reactive power with the help of a synchronous compensator by two-axis excitation // E3S Web of Conferences 264, 04028 (2021). International Scientific Conference Construction Mechanics, Hydraulics and Water Resources Engineering (CONMECHYDRO 2021). doi.org/10.1051/e3sconf/202126404028.
18. Toirov O.Z., Pirmatov N.B., Zayniyeva O.A., Bekishev A.E., Kurbanov N.A., Norkulov U.E. Calculation of U-shaped characteristics and reactive power of synchronous compensator with longitudinal-transverse excitation // AIP Conference Proceedings 2552, 040020 (2023). Rudenko International Conference "Methodological Problems in Reliability Study of Large Energy Systems" (RSES 2021). doi.org/10.1063/5.0115727.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100